

**Maxsus yuklarni kuzatib borishga doir
8-sonli shartnoma**

“05” subap 2022y.
Navoiy shahri.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Respublika inkassatsiya xizmati Davlat unitar korxonasi Navoiy viloyat boshqarmasi, keyingi o‘rinda “Boshqarma” deb ataladi, 04.10.2021 yildagi 05-05/93-IOP-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi boshqarma boshlig‘i **Z.Z.Yunusov** bir tomonidan va “Navoiyuran” Davlat korxonasi, keyingi o‘rinda “Xo‘jalik subyekti” deb ataladi, 05.01.2022 yildagi 01-02-01/02/2-sonli Ishonchnoma asosida ish yurituvchi bosh direktor o‘rinbosari **U.B.Ruziev** ikkinchi tomonidan ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar.

1. Shartnoma mohiyati.

1.1. “Boshqarma” ushbu shartnomaga binoan maxsus yuklarni (keyingi o‘rinda “Boyliklar” deb ataladi) va “Xo‘jalik subyekti” vakilini “Xo‘jalik subyekti” buyurtmasiga asosan Navoiy shahar Ibn sino ko‘chasi 14 uyda joylashgan TIF Milliy bank Navoiy viloyat filialidan, Navoiy shahar Inspektorlar ko‘chasi 7 uyda joylashgan “Navoiyuran” Davlat korxonasiga hamda Konimex tumani Zafarobod qo‘rg‘onida joylashgan Zafarobod Kon boshqarmasining markaziy kassasiga belgilangan manzilga, belgilangan muddatlarda, Boshqarmaning maxsus avtotransportida qurollangan inkassatorlari bilan “Boyliklar”ni butligini va daxlsizligini ta‘minlagan holda kuzatib boradi.

2. Tomonlarning majburiyatlari.

2.1. “Boshqarma”:

- “Xo‘jalik subyekti” buyurtmasiga asosan “Xo‘jalik subyekti” vakili tomonidan ushbu shartnomaning 1.1. bandida ko‘rsatilgan bank muassasasi manzilidan qabul qilingan “Boyliklar”ni “Xo‘jalik subyekti” manziliga kuzatib borish uchun maxsus inkassatsiya avtomashinasi va qurollangan inkassatorlar guruhini ajratadi.
- “Boyliklar”ni butligini ta‘minlagan holda manzilga yetkazishni ta‘minlaydi.

2.2. “Xo‘jalik subyekti”:

- “Boyliklar”ni kuzatib borish jadvalini ishlab chikib “Boshqarma”ga kamida 3 (uch) kalendar kun oldin (xat, faks, teletayp, telegramma va x.k.) orqali “Boyliklar”ni qabul qilish bo‘yicha ushbu shartnomaning 1.1. bandida ko‘rsatilgan bank muassasasi manzilini ko‘rsatgan xolda taqdim etadi.
- Agar “Xo‘jalik subyekti” tomonidan 3 (uch) kalendar kun oldin “Boshqarma”ga xabar berilmasa, kuzatuv ishlarini amalga oshirilmaligiga asos bo‘ladi.
- “Xo‘jalik subyekti” vakili Bank muassasasidan “Boshqarma” inkassatorlari kelguncha “Boyliklar”ni belgilangan tartibda qabul qilib, maxsus avtomashinaga ortishga tayyorlab quyadi.
- “Xo‘jalik subyekti” vakili qabul qilingan “Boyliklar”ni maxsus avtomashinaga ortadi. Boyliklarni manzilga kuzatib borgandan so‘ng, inkassatorlarga topshiriq to‘la bajarilganligi to‘g‘risida daftarga yozib, muxri bilan tasdiqlab beradi.



3. Xizmat xaqqini to'lash tartibi.

3.1. "Boshqarma" tomonidan ko'rsatgan xizmati uchun "Xo'jalik subyekti", "Boshqarma"ga har bir reysiga xizmat ko'rsatish kunida O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan, bazaviy hisoblash miqdorining 4 (turt) barobari miqdorida QQS qo'shilib hisoblangan holda haq to'laydi.

3.2. Respublikada belgilangan bazaviy hisoblash miqdori oshgan taqdirda ushbu xizmat haqi mutanosib ravishda oshib boradi.

3.3. "Xo'jalik subyekti", "Boshqarma" tomonidan ko'rsatilgan xizmati uchun to'lovni hisob-faktura taqdim etgandan keyin 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida ko'rib chiqib pul o'tkazish yo'li bilan to'lab beradi.

4. Tomonlarning ma'suliyatlari.

4.1. "Boshqarma":

- kuzatib boriladigan boyliklarni but saqlanishi uchun "Boshqarma"ning javobgarligi boyliklar maxsus avtomashinaga orilib, "Xo'jalik subyekti" vakili inkassatorlar tomonidan taqdim qilingan qo'riqlash uchun daftarga qayd etib, imzolanib, qabul qilib olingan vaqtdan boshlanib, belgilangan manzilga yetkazilgandan so'ng tugaydi.
- "Boshqarma", O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, muljallangan manzilga yetkazib berish uchun "Xo'jalik subyekti"dan qabul qilib olingan barcha boyliklarning but saqlanishi uchun o'zining barcha mulki bilan to'la javobgardir.
- "Xo'jalik sub'ekti" ga to'liq ko'rsatilmagan xizmatlar yoki o'z vaqtida bajarilmagan ishlar uchun "Boshqarma" kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penya miqdori bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

4.2. "Xo'jalik subyekti":

- "Boshqarma" tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov o'z vaqtida to'lanmagan taqdirida, to'lov muddatidan boshlab o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lanishi zarur bo'lgan qiymatning 0,4 foizi miqdorida, ammo 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.
- "Boshqarma" tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaqning asossiz to'lanmagan taqdirda esa, "Boshqarma" foydasiga ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidan tashqari, to'lashdan bosh tortilgan qiymatning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

4.3. Ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

5. Nizolarni hal qilish tartibi.

5.1. Taraflar o'rtasida shartnomaviy munosabatlar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi bilan yoki O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

5.2. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilib, taraflar tomonidan imzolangandan keyin haqiqiy hisoblanadi.

5.3. Agar taraflardan biri shartnomani bekor qilish istagini bildirsa, u bu haqda bir oy oldin rasmiy ravishda taraflarga xabar berishi lozim.

6. Fors-major xolatlari.

6.1. Taraflarga bog‘liq bo‘lmagan favqulotda holatlar (suv toshqini, yong‘in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa holatlar) sodir bo‘lsa, buni oqibatida shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlar to‘liq yoki qisman bajarilmasa taraflar javobgarlikdan ozod qilinadilar.

6.2. Shartnomadagi majburiyatlarni bajara olmaslik holati paydo bo‘lgan taraf zudlik bilan yoki 3 ish kunidan kech bo‘lmagan muddatda, yuqorida ko‘rsatilgan vaziyat paydo bo‘lganligi haqida ikkinchi tomonni xabardor qilish shart.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Ushbu shartnoma joriy yilning 5 yanvar kundan boshlab kuchga kiradi va nomuayyan muddat amalda bo‘ladi. Tomonlar boshqa tomonni bir oy avval ogohlantirgan holda shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo‘ladi.

7.2. Mazkur shartnoma ikki tomonlama imzolanib kuchga kirishi munosabati bilan tomonlar o‘rtasida 2019 yil 29 iyul kuni tuzilgan 7-sonli shartnoma o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblanadi.


7.3. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar taraflar tomonidan yozma ravishda imzolanganidan keyin kuchga kiradi va ilova shaklida shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

7.4. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan 2 (ikki) nusxada tuzilib, birinchi nusxasi “Inkassatsiya xizmati”ga, ikkinchi nusxasi “Buyurtmachi”ga taqdim qilinadi.

8. Tomonlarning huquqiy manzillari va bank rekvizitlari :


«Boshqarma»

RIX DUK Navoiy viloyat boshqarmasi
Navoiy shahar G‘alaba shox-220
x/r: 21596000900193579001
MFO: 00020
Navoiy vil.Markaziy bank XXMda
INN:200003361

(imzo)
Yurist _____
Z.Z.Yunusov


«Xo‘jalik subyekti»

«Navoiyuran» Davlat korxonasi
Navoiy sh.Inspektor ko‘chasi 7 uy
x/r: 20210000900305623001
MFO-00196 INN:201204514
FIF Milliy bank Navoiy viloyat filiali
OQS to‘lovi ning kodi:
312010031235


(imzo)
U.B.Ruziev

 20.01.2022 yil

